

Kuldashev Ergash Nurmurzayevich

Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrası

katta o‘qituvchisi

JIZZAX SHAHARSOZLIGINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax shahri shaharsozligining paydo bo‘lishi, tarixiy bosqichlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Jizzax shahri O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, uzoq tarixga va boy madaniy merosga ega. Shaharsozlikning vujudga kelishi va rivojlanishi mintaqaning geografik, iqtisodiy va siyosiy omillari bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlari: Me‘moriy obidalar, tarixiy shaharlar, geografiya, arxeologiya, tadqiq qilish.

Kuldashev Ergash Nurmurzayevich

Senior teacher of the Department of “Architectural design” of the

Jizzakh polytechnic institute

THE ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF THE CITY OF JIZZAKH

Abstract: This article examines the emergence, historical stages and modern development trends of urban planning in the city of Jizzakh. Jizzakh is located in the central part of Uzbekistan and has a long history and rich cultural heritage. The emergence and development of urban planning is closely related to the geographical, economic and political factors of the region.

Key words: Architectural monuments, historic cities, geography, archeology, research.

Kirish.

Jizzax shahri O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, uzoq tarixga va boy madaniy merosga ega. Shaharsozlikning vujudga kelishi va rivojlanishi

mintaqaning geografik, iqtisodiy va siyosiy omillari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu maqolada Jizzax shahri shaharsozligining paydo bo‘lishi, tarixiy bosqichlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi.

Jizzax shaharsozligining tarixiy asoslari Jizzax shahrining ilk shakllanishi qadimgi savyo yo‘llari, xususan, Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasi bo‘lganligi bilan bog‘liq. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi Jizzax hududida miloddan avvalgi davrlarda ham aholi punktlari mavjud bo‘lgan.

Qadimgi davrlar – Jizzax vohasi qadimdan dehqonchilik va savdo-sotiq markazi bo‘lib kelgan.

O‘rta asrlar – Shahar "Jiz" yoki "Jizzax" nomi bilan mashhur bo‘lib, temuriylar davrida harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lgan.

Rossiya imperiyasi davri (19-asr) – Jizzax Rossiya tomonidan bosib olingandan so‘ng harbiy qal’a sifatida qayta qurildi va shahar infratuzilmasining zamonaviy asoslari shakllandi.

20-asrda shaharsozlikning rivojlanishi ko‘rib chiqadigan bo‘lsak Sovet davrida Jizzax sanoat va qishloq xo‘jaligi markaziga aylandi:

1930–1960-yillar – Yirik sanoat korxonalari (masalan, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati) qurildi;

1970–1990-yillar – Shahar infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, yangi turar-joy massivlari barpo etildi.

Mustaqillik davridagi shaharsozlik islohotlari: 1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin Jizzax shahrida quyidagi o‘zgarishlar yuz berdi:

Yangi ma’muriy va ijtimoiy inshootlar (masalan, Jizzax davlat pedagogika instituti, yangi bozorlar, savdo markazlari) qurildi.

Transport tizimining yaxshilanishi – Shahar ichidagi yo‘llar ta’mirlandi, Toshkent–Jizzax–Samarqand temir yo‘li modernizatsiya qilindi.

Turar-joy qurilishining jadallashtirilishi – "Yangi Jizzax", "Tinchlik" kabi yangi turar-joy massivlari paydo bo‘ldi.

Jizzax shahri go'zal Sangzor daryosi bo'yida, hashamatli Nurota tog' tizmalari etagida joylashgan. Bu geografik joylashuv shaharning tarixiy davrlarda strategik ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Tog' yon bag'irlari va daryo vodiysi Jizzax arxitekturasiga o'ziga xos tabiiy landshaft elementlarini qo'shgan. Shahar qurilishida bu tabiiy sharoitlar hisobga olingan.

Somoniylar davrida Jizzaxdan Buxoro-Toshkent, Jizzax- Farg'ona, shuningdek, Ero va Kavkazni Markaziy Osiyo orqali Mo'g'iliston va Xitoy bilan bog'lab turuvchi karvon yo'llari bo'lgan. Bu karvon yo'llaridan biri, Buxorodan eng qisqa yo'l- Forish tumani orqali o'tadigan karvon yo'li edi. Jizzax IX-X asrlarda somoniylar, XI-XIII asr boshida Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlati, XIV-XV asrlarda Temuriylar davlati, XVI-XVIII asr birinchi yarmida Buxoro xonligi, XVIII asr ikkinchi yarmidan 1866- yilgacha Buxoro amirligiga to'be bo'lgan.

Tadqiqot natijasi

Poytaxt Toshkentdan 180 km, qadimiy Samarqand shahridan esa 90 km uzoqlikda joylashgan Jizzax, O'zbekiston markaziy mintaqasidagi muhim transport tugunlaridan biri hisoblanadi.

Shahar hududi 49 km² ni tashkil etadi va bu maydon ichida tarixiy va zamonaviy arxitektura namunalari uyg'unlashib ketgan. Bu joylashuv shaharning qadimdan savdo yo'llari chorrahasida bo'lganini ko'rsatadi.

Jizzax nomining kelib chiqishi va ilk manbalar keltiradigan bo'lsak Jizzax nomining so'g'dcha "Dizak" so'zidan kelib chiqqanligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bu so'z "kichik qal'a" ma'nosini anglatadi va shahardagi himoya inshootlarining ahamiyatidan dalolat beradi.

X asr manbalarida Jizzax shahrining ilk marta rasmiy manbalarda eslatilishi X asrga to'g'ri keladi. Arab sayyohlari va tarixchilarining yozuvlarida shaharning strategik ahamiyati va me'moriy xususiyatlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

"Eski shahar" arxeologiyasida hozirgi shahar hududidagi "Eski shahar" mavzesida arxeologik qazishmalar natijasida topilgan materiallar Jizzaxning qadimiy tarixi va me'morchilik an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Qadimgi Jizzax: Qaliyatepa arxeologik majmuasi Qaliyatepa majmuasi 30 gektarli qadimiy hududni qamrab olgan bo'lib, unda 5 ta to'rtburchak tepalik shaklidagi turar-joy va jamoat binolari joylashgan. Bu arxeologik majmua Jizzaxning qadimiy davrlardagi shahar qurilishi va me'morchilik an'alarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

IX–X asrlarga oid himoya devorlari va arxeologik qatlamlar shaharsozlik madaniyatining yuksak darajasidan dalolat beradi. Bu yerda topilgan qurilish materiallari va usullari bizga qadimgi me'morchilik texnologiyalari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'rta asr arxitekturasi: Qurilish turlari va materiallar paxsa qurilish texnikasi o'rta asrlarda Jizzax binolari asosan paxsa (zich siqilgan loy) va xom g'ishtlardan qurilgan. Bu materiallar mahalliy iqlim sharoitida eng maqbul hisoblanib, yozda salqin, qishda esa iliq xonalar yaratish imkonini bergan.

Devorlar xususiyatlari. Binolar qalin devorlari (1,4—2,5 metr) nafaqat mustahkamlik, balki issiqlik izolatsiyasi vazifasini ham bajargan. Bu qurilish uslubi asrlar davomida shakllangan mahalliy me'morchilik an'alarining natijasidir.

Mudofaa inshootlari. Qo'rg'on va mudofaa devorlarining o'ziga xos tuzilishi Jizzaxning harbiy-strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Shahar atrofidagi mustahkam devorlar va minoralar noyob arxitektura ansambli sifatida shakllantirilgan.

Xulosa

Jizzax shahri qadimiy davr, o'rta asrlar va XX asr boshlaridagi arxitektura namunalarini o'zida mujassam etgan. Bu me'moriy meros nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy ahamiyatga ham ega bo'lib, kelajak avlodlar uchun saqlanishi kerak.

Mustaqillik yillarida Jizzax shahri arxitekturasi va shaharsozligi milliy an'alar va zamonaviy qurilish texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda rivojlandi. Yangi

turar joy majmualari, ijtimoiy obyektlar va biznes markazlar shahar qiyofasini boyitdi.

Jizzax shahri shaharsozligi va arxitekturasini kelajakda yanada rivojlanib, milliy va zamonaviy me'morchilik uslublarini o'zida mujassam etgan inshootlar bilan boyiydi. Innovatsion texnologiyalar va ekologik yondashuvlar shahar qiyofasini yanada go'zallashtiradi.

Jizzax shahri arxitekturasini o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bugungi kunda shahar qadimiy me'moriy obidalar va zamonaviy binolar uyg'unlashgan noyob maskan sifatida namoyon bo'lmoqda. Shahar arxitekturasidagi va shaharsozligidagi ushbu uyg'unlik tarix va zamonaviylik, an'ana va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Building Agricultural Structures", T.K. Lee, R. Kumar, Elsevier, 2021
2. Sutormina, E. S. (2019). Innovative infrastructure as a factor in the effective development of the agro-industrial complex of the Tambov region. Technologies of food and processing industries of the agro-industrial complex - healthy food products.
3. Bogachev, A. I. (2019). Innovative activity in agriculture in Russia: current trends and challenges, Bulletin of NGIEI.
4. https://zen.yandex.ru/media/des_alextoyi/vertikalnoe-ozelenenie-v-landshaftnom-dizaine-5f7375d2c859e64d8010da43
5. <https://m-strana.ru/design/priemy-vertikalnogo-ozeleneniya-i-podbor-rasteniy/>
6. <https://m-strana.ru/articles/landshaftnye-raboty-na-dachnykh-uchastkakh/>